

## **Yaponiyada rezident sifatida ro'yxatdan o'tgan chet elliklar: Shaxsiy raqam (Mening raqamim) haqida ma'lumot**

2016-yilning yanvar oyidan boshlab Ijtimoiy himoya va soliq raqamlari (shuningdek, shaxsiy raqamlar yoki "Mening raqamlarim" deb yuritiladi) ijtimoiy himoya, soliq va ofatlarni bartaraf etish sohalarida qo'llaniladi.

### **1. Shaxsiy raqam nima?**

Shaxsiy raqamlar ("Mening raqamlarim" deb yuritiladi) 12 xonali raqamdan iborat bo'lib, Ijtimoiy himoya va soliq raqami tizimi asosida Yaponiyada yashovchi shaxslarga beriladi. Ular ijtimoiy himoya, soliq va ofatlarni bartaraf etish sohalarida qo'llaniladi. Tizim ijtimoiy infratuzilma sifatida xizmat qilib, ma'muriy ochiqlikni oshirish, xalqqa yanada qulaylik tug'dirish va adolatli hamda haqqoniy jamiyat yaratishda yordam beradi.

Yaponiyada rezident sifatida ro'yxatdan o'tgan chet elliklar (o'rta muddatli rezidentlar, maxsus doimiy rezidentlar va h.k.) ham o'z shaxsiy raqamlariga ega bo'ladi.

### **2. Shaxsiy raqamingiz haqida xabarnoma**

- ◆ Agar siz Yaponiyada rezident sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lsangiz, ro'yxatdan o'tgan manzil bo'yicha mahalliy munitsipal idorasidan olgan xabarnoma kartasida shaxsiy raqamingiz chop etilgan bo'ladi.  
(Xabarnoma kartasi muddatsiz bo'ladi. Xabarnoma kartangizni tashlab yubormang. Uni ishonchli joyda saqlang).
- ◆ Yaponiyaga o'rta va uzoq muddatli rezidentlik holati bilan tashrif buyurayotgan chet elliklar rezidentlik ro'yxatidan o'tayotgan paytlarida shaxsiy raqamlarini oladilar.

### **3. Shaxsiy raqamdan qachon foydalaniladi**

- ◆ Siz masalan 2016 yoki undan keyingi yillar uchun soliq deklaratsiyasini topshirish kabi soliq harakatlarini amalga oshirayotgan paytingizda shaxsiy raqamingizni soliq inspeksiyasiga topshirasiz.
- ◆ Shaxsiy raqamingizni ish beruvchingizga soliq to'lash va ijtimoiy himoya amaliyotlarini hal qilish uchun taqdim qilasiz.
- ◆ Soliq amaliyotlari maqsadida shaxsiy raqamingizni qimmatli qog'oz firmalari va sug'urta kompaniyalariga taqdim qilishingiz kerak bo'ladi.
- ◆ Shaxsiy raqamingizni ijtimoiy nafaqalarni olish va milliy sog'liq sug'urtasi va bemorlarga g'amxo'rlik sug'urtasi dasturlari doirasida nafaqalarni olish uchun munitsipal boshqarmasiga taqdim qilasiz.
- ◆ Shaxsiy raqamingizni boshqa mamlakatga pul yuborsangiz yoki qabul qilsangiz, bankka yoki pochtaga taqdim qilasiz.

Izoh: Yuqoridagi amallarni bajarish paytida shaxsiy raqamingizni ishlatayotgan tashkilot uning o'g'irlanmaganligini aniqlash maqsadida (1) raqamning haqiqiyliigi va (2) egasining shaxsini tekshiradi.

Xabarnoma kartasi faqatgina raqamni tasdiqlaganligi bois, shaxsingizni aniqlovchi hujjatni taqdim qilishingiz kerak bo'ladi (masalan, rezident kartasi, maxsus doimiy rezident guvohnomasi).

### **4. Shaxsiy raqam kartasi nima (Mening raqam kartam)?**

- ◆ Ushbu karta ham shaxsiy raqamni tasdiqlaydi, ham shaxsiy raqamga tegishli amallarni aniqlaydi. U, shuningdek, sizning rasmiy ID kartangiz sifatida xizmat qiladi.
- ◆ Siz shaxsiy raqam kartasini olish uchun ariza berishingiz mumkin. Ariza berishning bir necha yo'llari bor, masalan, ariza shaklini (xabarnoma kartasi bilan beriladi) rasmingiz bilan pochta orqali yuborishingiz mumkin, kompyuteringiz yoki smartfoningiz orqali onlayn topshirishingiz mumkin. Kartani birinchi marta olish bepul.
- ◆ Shaxsiy raqam kartasiga ariza berganingizdan so'ng, kartangiz chiqarilishga tayyor degan marka olasiz. Kartangizni (1) ushbu markani, (2) xabarnoma kartochnangizni va

(3) shaxsiy ID (rezident kartasi va h.k.) kartangizni ko'rsatib, munitsipal idorasidan olib ketishingiz mumkin. Karta berilayotgan paytda shaxsiy identifikatsiya raqamingizni o'rnatishingiz kerak bo'ladi.

- ◆ Shaxsiy raqam kartangiz amal qilish muddati, agar siz 20 yosh yoki undan katta bo'lsangiz, olgan vaqtdan boshlab o'ninchi tug'ilgan kuningizga qadar, agar 20 yoshdan kichik bo'lsangiz, olgan vaqtdan boshlab beshinchi tug'ilgan kuningizgacha. Shu narsani yodda tutingki, karta muddatining tugashi rezidentlik muddatingiz yoki boshqa sharoitlarga ham bog'liq bo'lishi mumkin.
- ◆ Kartada IC chip o'rnatilgan bo'lib, u onlayn soliq to'lash va boshqa amaliyotlar uchun ishlatiladigan elektron sertifikatni saqlaydi.
- ◆ Ayrim munitsipal muassasalarida kartadan davlat xizmatlaridan foydalanishda qo'llanilishi mumkin (masalan, bepul kutubxona xizmatlari, muhrli ro'yxatdan o'tish guvohnomalari) yoki yaqin-atrofingizdagi do'kondan rezidentlik guvohnomasi nusxasini olishda ishlatishingiz mumkin.
- ◆ IC chipda kartaning yuza qismida ismingiz, manzilingiz, shaxsiy raqamingiz va boshqa ma'lumotlar chop etilgan bo'ladi. Daromadlaringiz kabi juda maxfiy shaxsiy ma'lumotlar yozib olinmaydi.
- ◆ Shaxsiy raqam kartangizni olsangizda, rezidentlik kartangizni, maxsus doimiy rezidentlik guvohnomangizni va h.k. olib qo'yishingiz kerak.

## 5. Shaxsiy raqamdan foydalanishda ehtiyot choralari

- ◆ Xabarnoma kartasida yoki shaxsiy raqam kartasida ko'rsatilgan manzil yoki boshqa ma'lumot o'zgartirilishi kerak bo'lsa, marhamat qilib, munitsipal idoraga murojaat qiling.
- ◆ Qonunda ruxsat etilgan holatlardan tashqari hech kim shaxsiy raqamlardan foydalanishi yoki yig'ishi mumkin emas. Kimdir sizdan shaxsiy raqamingizni so'rasa, undan kim so'rayotganligini va nima maqsadda so'rayotganligini aniqlashtiring.
- ◆ G'ayriqonuniy yo'l bilan shaxsiy raqamni olgan har qanday odam jazoga tortiladi.
- ◆ E'tiborsizlik bilan boshqalarga shaxsiy raqamingizni aytib yurmang. ayniqsa, shubhali qo'ng'iroqlarda uni ayta ko'rmang.

## 6. Shaxsiy raqam haqida savollarga javob olish

- ◆ Bepul telefon raqamlari orqali ingliz, xitoy, koreys, ispan va portugal tillarida savollarga javob olish mumkin  
**0120-0178-26 Ijtimoiy himoya va soliq raqam tizimi bo'yicha savollarga javob olish**  
**0120-0178-27 Xabarnoma kartasi va shaxsiy raqam karta bo'yicha savollarga javob olish**  
9:30–20:00 ish kunlari, 9:30–17:30 dam olish kunlari va milliy bayramlarda (yil so'nggi/Yangi yil bayramlarida ishlamaydi)
  - Shaxsiy raqam kartangizni yo'qotgan yoki o'g'irlatib qo'yganlik tufayli favqulodda xabar berish uchun 0120-0178-27 raqamiga qo'ng'iroq qiling, 24/7 davomida ishlaydi.
- ◆ Shaxsiy raqamlar haqidagi ma'lumot turli tillarda quyidagi veb-saytlarda mavjud:
  - Kotibiyat: <http://www.cas.go.jp/jp/seisaku/bangoseido/>
  - J-LIS: <https://www.kojinbango-card.go.jp/>



Har bir shaxsga alohida shaxsiy raqam beriladi. Iltimos, shaxsiy raqamingizga ehtiyot bo'ling!